



SEMANTIC ANALYSIS OF THE NOUN-FORMING SUFFIX -CHI IN THE UZBEK AND PERSIAN LANGUAGES

Surayyo M. Mamadaliyeva

Higher School of Iranian and Afghan Studies

1st-year Master's degree student

Tashkent State University of Oriental Studies

tukhtamurodovasurayyo@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

D.A. Azimjanova

Associate Professor at TSUOS, Higher School of Iranian and Afghan Studies

Candidate of Philological Sciences

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: word formation, noun-forming suffix, suffix -chi, semantic polysemy, comparative analysis, Uzbek language, Persian language.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article presents a comparative analysis of the semantic features of the noun-forming suffix -chi, which is actively used in the Uzbek and Persian languages. The study identifies the semantic domains, polysemy, degree of productivity, and functional load of this affix in both languages. It examines the common and distinctive features of the suffix -chi in expressing meanings related to profession, occupation, social status, affiliation, behavioral characteristics, and functional relations to objects. The research employs comparative-typological, semantic component, contextual, and lexico-derivational analysis methods, as well as statistical observations based on corpus linguistics data. As a result, a semantic field model of the suffix -chi is developed, and a comparative semantic typology of affixation in the Uzbek and Persian languages is proposed. The findings are of significant scholarly value for comparative linguistics, theoretical morphology, translation studies, and applied lexicography.

O'ZBEK VA FORS TILIDA -CHI OT YASOVCHI QO'SHIMCHASINING SEMANTIK TAHLILI

Surayyo M. Mamadaliyeva

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi

I-kurs magistratura bosqichi talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

tukhtamurodovasurayyo@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

D.A. Azimdjanova

TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi dotsenti

Filologiya fanlari nomzodi

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: so‘z yasalishi, ot yasovchi qo‘shimcha, -chi affiksi, semantik polisemiya, chog‘ishtirma tahlil, o‘zbek tili, fors tili.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek va fors tillarida faol qo‘llanadigan -chi ot yasovchi qo‘shimchasining semantik xususiyatlari chog‘ishtirma jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida affiksning har ikkala tildagi ma‘no tarmoqlari, semantik polisemiyasi, produktivlik darajasi hamda funksional yuklari aniqlanadi. O‘zbek va fors tillarida -chi qo‘shimchasining kasb-hunar, mashg‘ulot, ijtimoiy mavqe, tarafkashlik, xulq-atvor va predmetga nisbatan funksional munosabatlarni ifodalashdagi umumiy va farqli jihatlari ochib beriladi. Tadqiqotda chog‘ishtirma, semantik komponentlar, kontekstual va leksik-derivatsion tahlil metodlari hamda korpus lingvistikasi asosida statistik kuzatuvlar qo‘llanilgan. Natijada -chi affiksining semantik maydon modeli ishlab chiqilib, affiksatsiya jarayonining o‘zbek va fors tillaridagi chog‘ishtirma-semantik tipologiyasi taklif etiladi. Tadqiqot natijalari chog‘ishtirma tilshunoslik, nazariy morfologiya, tarjima nazariyasi va amaliy leksikografiya uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОГО СУФФИКСА -ЧИ В УЗБЕКСКОМ И ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКАХ

Сурайё М. Мамадалиева

Высшая школа иранистики и афганистики

Магистрантка 1-го курса

Ташкентский государственный университет востоковедения

tukhtamurodovasurayyo@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Д.А. Азимджанова

Доцент ТГУВ, Высшая школа иранистики и афганистики

Кандидат филологических наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: словообразование, словообразовательный суффикс, суффикс -chi, семантическая полисемия, сравнительный анализ, узбекский язык, персидский язык.</p>	<p>Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ семантических особенностей словообразовательного суффикса -chi, активно функционирующего в узбекском и персидском языках. В ходе исследования выявляются семантические поля, полисемия, степень продуктивности и функциональная нагрузка данного аффикса в обоих языках. Раскрываются общие и отличительные черты употребления суффикса -chi в выражении значений профессии, рода занятий, социального статуса, приверженности, поведенческих характеристик, а также функционального отношения к предмету. В работе используются сравнительно-типологический метод, компонентный, контекстуальный и лексико-деривационный анализ, а также статистические наблюдения на основе данных корпусной лингвистики. В результате исследования разработана модель семантического поля суффикса -chi и предложена сравнительно-семантическая типология аффиксации на материале узбекского и персидского языков. Полученные результаты имеют важное научное значение для сравнительного языкознания, теоретической морфологии, теории перевода и прикладной лексикографии.</p>
---	--

Kirish. Til tizimida soʻz yasalishi, xususan affiksatsiya jarayonlari, leksik-semantik tizimning kengayishi va yangi nominativ birliklarning shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Oʻzbek va fors tillarida faol qoʻllanadigan -chi, چی-(çi) ot yasovchi qoʻshimchasi ham ana shunday unumdor affikslardan biri boʻlib, u ishtirok etgan soʻzlarda kasb, mansab, mashgʻulot, tarafkashlik, xulq-atvor yoki predmetga xos funksional munosabatlarni nomlashda muhim vazifani bajaradi. Mazkur affiksning ikki til doirasida umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, ularning semantik imkoniyatlarini chogʻishtirma tahlil qilish bugungi kunda lingvistik tadqiqotlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Global kommunikatsiya jarayonlarida turkiy va eroniy tillar oʻzaro koʻp qatlamli aloqa va taʼsirga ega tillar sifatida oʻrganilmoqda. Ayniqsa, oʻzbek va fors tillari tarixiy jarayonlarda leksik-semantik oʻzaro boyishning faol ishtirokchilari boʻlib kelgan. Shu nuqtai nazardan, -chi, چی-(çi) qoʻshimchasining ikki til semantik strukturasi oʻrnini aniqlash, affiksning produktivlik darajasi, maʼno tarmoqlari va funksional yukini belgilash nazariy morfologiya va chogʻishtirma tilshunoslik uchun muhim ilmiy masaladir. Tilning nominativ imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda

ushbu affiksning semantik spektrini chuqur tahlil qilish amaliy leksikografiya, tarjima nazariyasi va kompyuter lingvistikasi uchun ham dolzarbligini yo'qotmayapti.

O'zbek tilshunosligida -chi, ot yasovchi qo'shimchasi bo'yicha ayrim tavsifiy izohlar mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyatida affiksning semantik polisemiyasi yetarli darajada tizimli tasniflanmagan. Fors tilida esa چى-(çi) shaklidagi affiksning semantik doirasi yoritilgan bo'lsa-da, o'zbek tilidagi mazkur qo'shimcha bilan chog'ishtirma tahlil deyarli olib borilmagan. Har ikkala tilda -chi, چى-(çi) affiksining metaforik kengayishlari, zamonaviy tilga xos neologik qo'llanmalari to'liq o'rganilmagan. Shuningdek, mavjud tadqiqotlarda ikki tilning tarixiy-etimologik asoslari, semantik paralellari yetarli darajada solishtirilmagan.

Avvalgi ilmiy ishlarning aksariyati:

- o'zbek va fors tillaridagi -chi, چى-(çi) qo'shimchalarining chog'ishtirma-funksional tahlilini izchil amalga oshirmagan;

- zamonaviy korpus materiallari asosida korpus lingvistik tahlilini qo'llamagan;

Shu sababli mavjud tadqiqotlar affiksning haqiqiy semantik salohiyatini to'liq ochib berishga yetarli bo'lmagan.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — o'zbek va fors tillarida -chi, چى-(çi) ot yasovchi qo'shimchasining semantik imkoniyatlarini chog'ishtirma tahlil qilish, ularning umumiy va o'ziga xos ma'no tarmoqlarini aniqlash hamda affiksning zamonaviy nutqdagi funksional yukini ilmiy-nazariy asosda yoritishdan iborat.

Tadqiqot natijasida:

- o'zbek va fors tillarida -chi, چى-(çi) qo'shimchasining semantik maydon modeli chog'ishtirma asosda ishlab chiqiladi;

- o'zbek va fors tillari misolida affiksatsiya jarayonining chog'ishtirma-semantik tipologiyasi taklif etiladi.

Maqolada chog'ishtirma tahlil, semantik komponentlar tahlili, kontekstual tahlillar qo'llanadi. Natijalar asosini o'zbek va fors tillarining zamonaviy matn korpuslari, lug'atlar, adabiy manbalar tashkil etadi.

Asosiy qism. Yasama so'zning tarkibidagi so'z yasaliş asosi so'z yasalişida muayyan bir ma'nosi bilan qatnashsa, so'z yasovchi umumiy ma'no bilan qatnashadi. Shu xususiyatlariga ko'ra, 1) har qanday yasama so'z tarkibida so'z yasaliş asosi vazifasida muayyan so'z qatnashsa, so'z yasovchi birdan ortiq so'zlar yasaydi; 2) so'z yasovchining ma'nosi so'z yasaliş asosining ma'nosi negizida voqelanadi; 3) muayyanlik, umumiylik xususiyatiga ega bo'lishidan qat'i nazar, har bir yasama so'z tarkibida so'z yasaliş asosi ham, so'z yasovchi ham bir ma'nosi bilan qatnashadi; 4) so'z yasaliş asosi vazifasida qo'llangan so'z, leksik birlik holatida, ko'p ma'noli bo'lishi mumkin.

Yasama soʻz – lisoniy birlik, leksema. Leksema sifatida u leksik birlik – tilning leksik qurilishi sathiga xos birlik sanaladi va tilshunoslikning leksikologiya boʻlimida oʻrganiladi. Soʻz yasalishi bahsida esa lugʻaviy birlik boʻlmish leksemaning qanday hosil qilinishi, uni hosil qiluvchi birliklar va ularning mohiyati hamda soʻz yasalishi, yasama soʻz bilan bogʻliq boshqa hodisalar oʻrganiladi. Yasama soʻzning mohiyati soʻz yasalish asosi va soʻz yasovchining mohiyati asosida belgilanadi.

Yasama soʻzning maʼnosi soʻz yasalish asosi va soʻz yasovchining maʼnosi sintezidan yuzaga keladi. Yasama soʻzlar ular tarkibidagi har bir yasama soʻz asosiga (soʻz yasalish asosiga) xos maʼno bilan emas, balki soʻz yasalish asoslari uchun umumiy boʻlgan belgi (maʼno) asosida guruhlanadi.

1. -chi, چى-(çi) affiksining maʼno doirasi qanday shakllanadi.

-chi affiksi bilan ot yasalishi turkiy tillarda qadimdan mavjud boʻlib, qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ham aks etgan. Bu affiks bilan ot yasashi XI asrda turkiy tillarning barchasi uchun umumiy hoʻlat ekanligini Mahmud Koshgʻariy uqtirib oʻtgan (MK, II tom 54-bet).

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar, jumladan -chi, چى-(çi), faqat yangi soʻz yasash bilan cheklanmaydi, balki turli maʼnolarni ifodalash imkoniyatiga ega boʻladi. Oʻzbek va fors tillarida -chi, چى-(çi) qoʻshimchasi orqali yasalgan soʻzlar tahlil qilinganda, ularning maʼnolari bir xil emasligi, balki bir-biri bilan bogʻliq boʻlgan bir nechta maʼno guruhlarini tashkil qilishi koʻrinadi.

Bu qoʻshimcha asosan “bir ishni qiluvchi shaxs” degan umumiy maʼno atrofida shakllanadi. Ammo real nutqda bu umumiy maʼno turli yoʻnalishlarda kengayadi. Shu sababli -chi qoʻshimchasining maʼnolarini alohida-alohida emas, balki bir butun maʼno tizimi sifatida koʻrib chiqish zarur boʻladi.

2. Oʻzbek tilida -chi affiksining maʼnolari

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida ot yasovchi affiksalar anchagina(50 ga yaqin). Lekin ularning hozirgi soʻz yasalishida ishtiroki bir xil emas. Ayrim affikslar yordamida koʻplab otlar yasalayotgan boʻlsa, baʼzilar esa sanoqli miqdordagi otlar yasaydi. Koʻpgina ot yasovchilar esa soʻz yasash funksiyasini toʻxtatgan.

-chi. Bu affiks yordamida quyidagi maʼnoli shaxs otlari yasaladi:

1. Biror kasb-hunar, mutaxassislik, mashgʻulot bilan shugʻullanuvchi shaxsni bildiruvchi ot yasaydi: polizchi, chorvachi, sanʼatchi, qoʻshiqchi, choyxonachi, bufetchi, traktorchi, betonchi kabi.

-chi affiksi yordamidagi ot yasash tiplarining hammasi hozirgi tilda produktiv, jonli yaʼni ish koʻrishni toʻxtatmagan soʻz yasalish tiplaridir.

Tahlil natijasida bu qoʻshimcha ishtirokida yasalgan soʻzlarni bir nechta asosiy maʼno guruhlariga ajratish mumkin.

2.1. Kasb va mashgʻulot bildiruvchi soʻzlar

Bu eng koʻp uchraydigan va hammaga tushunarli guruhdir. Bunday soʻzlar shaxsning doimiy ishi yoki kasbini bildiradi:

- qandolatchi
- temirchi
- baliqchi

Bu soʻzlarda -chi qoʻshimchasi shunchaki “shu ish bilan shugʻullanuvchi odam” degan maʼnoni beradi. Bu guruhdagi soʻzlar koʻpincha kontekstsiz ham tushunarli boʻladi.

2.2. Lavozim va vazifa bildiruvchi soʻzlar

Bu guruhda -chi qoʻshimchasi shaxsning jamiyatdagi vazifasi yoki xizmatini bildiradi:

- elchi
- bojxonachi

Bu soʻzlar odatda rasmiy yoki yarim rasmiy nutqda ishlatiladi va kasbga qaraganda masʼuliyat va vazifa maʼnosini kuchliroq ifodalaydi.

2.3. Qarash va tarafdorlikni bildiruvchi soʻzlar

Zamonaviy oʻzbek tilida -chi qoʻshimchasi shaxsning biror gʻoya yoki yoʻnalishga munosabatini bildirish uchun ham ishlatiladi:

- islohotchi
- tinchlikchi
- yangilikchi

Bu turdagi soʻzlar ayniqsa publitsistik matnlarda va ommaviy nutqda keng qoʻllanadi.

Baʼzi hollarda -chi qoʻshimchasi shaxsning doimiy xatti-harakati yoki odatini bildiradi:

- gapchi
- hazilchi

Bu soʻzlarda maʼno koʻpincha baholovchi boʻlib, ijobiy yoki salbiy boʻlishi mumkin.

3. Fors tilida -chi, چی-(çi) affiksining qoʻllanilishi

Fors tilida ham چی-(çi) qoʻshimchasi mavjud va u oʻzbek tilidagi qoʻshimchaga oʻxshash vazifani bajaradi. Ammo u yerda bu affiks unchalik keng qoʻllanilmaydi. Masalan, تانبورچی tambur(a)çi ‘tanburchi’ (تانبور ‘tanbur’), سرنی چی sornayçi ‘sornaychi’ (سرنی sornay ‘sornay’), طبل چی tabl(a)çi ‘barabanchi’ (طبل tabl ‘doʻmbira, baraban’), ویلون چی wailonçi ‘skripkachi’ (wailon ‘skripka’).

Yasama soʻzlar guruhining taʼrifi: “Soʻz yasash asoslariga xos umumiy maʼno + ‘shaxs’ maʼnosi” (soʻz yasovchining maʼnosi)dan yuzaga keladi. Soʻz yasash asoslariga xos umumiylik esa “musiqa asbobi turi” maʼnosidir. Bunday yasama soʻzlar guruhidagi har bir soʻz “musiqa asbobi turi” maʼnosi bilan bir leksik-semantik guruhni tashkil etadi – leksik sistemani shakllantiradi.

3.1. Kasb va xizmat bildiruvchi soʻzlar

Fors tilida چی-(çi) qoʻshimchasi asosan shaxsning ish yoki xizmat bilan shugʻullanishini bildiradi:

- نانچی (nonchi)

• قهوهچی (qahvachi)

نانچی هر سحر تنور را گرم می‌کند.

Nānchi har sahar tanur rā garm mikonad. “Nonchi har tong tandirni qizdiradi.”

ربات قهوهچی در ژاپن نوشیدنی گرم به مشتری می‌دهد.

Robāt qahveči dar Jāpon nušidani garm be moštari midehad “Yaponiya’da qahvechi robot mijozga issiq ichimlik beradi”

Bu so‘zlar ma’nosi jihatidan o‘zbek tilidagi mos so‘zlarga juda yaqin.

L.S. Peysikov چی -či suffiksi haqida fikr yuritar ekan, bu suffiks hozirgi zamon fors tilida forsiy va boshqa tillardan kirgan o‘zlashmalarga bemalol qo‘shilib kasb- hunar ma’nosini anglatuvchi so‘zlarni yasashda ishtirok eta olishini ta’kidlaydi. Masalan, شکارچی šekārči “ovchi”, معدنچی ma’danči “konchi”, درشکه چی doreškači “izvoshchi”. Shuningdek, bu suffiks og‘zaki muloqotda ba’zi bir so‘zlarga qo‘shilib, adabiy tilda mavjud bo‘lmagan yangi so‘zlar yasaydi. Masalan, روزنامه مشورت چی ruznāmeči “gazetachi”, سینماچی sinemāči “kinochi”, پوستچی postči “pochtachi”, مشاورتی mašvaratči “maslahatchi”. Bundan tashqari so‘z birikmalari va arab tilidan kirgan حقالمالچی hayollmālči “dallol” kabi statuskonstruktiv tipidagi lug‘at birliklariga ham qo‘shilish holatlari kuzatiladi .

Avval aytganimizdek, mazkur qo‘shimcha keng qo‘llaniladigan qo‘shimchalardandir. Bu qo‘shimcha hozirda ham yozma manbalarda uchraydi:

فرمانده انتظامی شهرستان کرمان از کشف 8 سلاح شکاری و جنگی در کرمان از یک شکارچی غیرمجاز خبر داد

farmāndeh-e entezāmi- ye šahrestān kermān az kašf-e 8 salāh-e šekāri va jangi dar kermān az yek šekārči-ye yeyr-e majāz xabar dād. “Kirmon shahri politsiya qo‘mondoni Kirmonda noqonuniy ovchidan 8 dona ov va urush qurollari topilganini ma’lum qildi”

Ushbu jumladagi چی -çi suffiksi forsiy شکار šekār so‘ziga qo‘shilib yasama so‘z yasamoqda: شکار + چی ← شکارچی

Shuningdek, چی -çi suffiksi arabiy va yevropa tillaridan kirgan so‘zlarga ham qo‘shilib, yasama so‘z yasashda xizmat qilishi mumkin:

شلاق در شکه چی بلند شد و راه افتادیم šallāy-e doroškeči boland šod va rāh oftādim

“Izvoshchining qamchisi ko‘tarildi va yo‘lga tushdik”.

Ushbu jumladagi چی -çi suffiksi rus tilidan kirgan درشکه doroške so‘ziga qo‘shilib, yasama so‘z yasamoqda: درشکه + چی ← درشکهچی

شهباز بعد از کمی سکوت رو کرد به قهوه چی و گف: داش اکبر، دو تا قند پهلو بیار

šahbāz bad az kami sokut ru kard b šahveči goft: “dāš akbar do tā γand pahlu biyār “Shahboz biroz sukutdan so‘ng qahvachiga qaradi va dedi: “Akbar aka ikkita qand olib keling”.

باز نظافتچی مرا بیدار کرد

شما که نخور ده اید؟ -

من نمی خورم.

bāz nezāfatçi marā bidār kard.

- šomā ke naxorde-id?

- man namixoram.

Yana farrosh meni uyg'otdi.

- Siz yemadingizmi?

- Men yemayman.

Ushbu jumalardagi arabiy قهوه qahve va نظافت nazāfat so'zlari o'zlariga چی -çi so'z yasovchi qo'shimchasini qabul qilmoqda:

قهوه + چی ← قهوه چی

نظافت + چی ← نظافتچی

3.2. Ma'no jihatdan barqarorlik

Fors tilida چی -çi orqali yasalgan so'zlarning ko'pchiligi bitta asosiy ma'noga ega bo'ladi. Ular ko'pincha ko'chma yoki baholovchi ma'nolarga ega emas. Bu esa fors tilida mazkur qo'shimchaning ma'no jihatdan barqarorroq ekanini ko'rsatadi.

4. O'zbek va fors tillarining chog'ishtirma tahlili

O'zbek va fors tillarini solishtirish natijasida quyidagi farqlar aniqlanadi:

O'zbek tilida -chi qo'shimchasi:

[-chi] affiksli [ot + -chi = 1) asosdan anglashilgan narsa bilan bog'liq kasb, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; 2) asosdan anglashilgan ish/harakat/hodisa bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; 3) asosdan anglashilgan ish-harakat, faoliyatda qatnashuvchi shaxs oti; 4) ish-faoliyatda biror oqim, maslak va sh.k. tarafdori, shularga mansub bo'lgan shaxsni bildiruvchi oti; 5) asosdan anglashilgan hodisani, ish-harakatni bajarish odati kuchli bo'lgan shaxsni bildiruvchi oti] qolipi quyidagi hosilalarni bergan:

1. [sportchi], [dutorchi], [kashtachi], [shaxmatchi], [bufetchi], [matbaachi];
2. [xabarchi], [maslahatchi], [terimchi], [yordamchi], [himoyachi], [davomchi];
3. [jangchi], [isyonchi], [hasharchi], [muzokarachi], (sayrchi), [obunachi];
4. [respublikachi], [muxtoriyatchi], ("paxtakor"chi), [tursunoychi];
5. [to'polonchi], [buzg'unchi], [tavakkalchi], [ginachi], [uyquchi], [lofchi], [kekchi].

Ko'rinadiki, bu qolip polisemanitik va polifunksional bo'lib, har bir ma'nosi yana bir necha ma'no turlariga bo'linib ketadi.

Fors tilida - چی-(çi) qo'shimchasi:

Kasb-hunarni bildiruvchi terminlarni ham hosil qiladigan چى-(çi) affiksi haqida shuni aytish mumkinki, uning mahsuldorligi boshqa suffikslarga nisbatan ancha pastdir. Buning sababi shundaki, ular orqali ifodalangan kasb nomlarining aksariyati asta-sekin eskirib borayotgan toifaga mansubdir. Hozirgi vaqtda esa, odatda yuqorida tilga olingan suffiks yordamida yangi terminlar hosil qilinmaydi. Biroq, ushbu suffiks yordamida yasalgan ayrim terminlarning ma'nolari hozirgi davrda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki bugungi kunda ushbu terminlar bilan ifodalanadigan so'zlar mavjud. Masalan, معدنچى ma'dançi "shaxtyor" (معدن so'zidan "shaxta"), تماشاچى tamāšāçi "kuzatuvchi" (تماشا so'zidan "kuzatish", "tomosha qilish").

Bu holat o'zbek tilida so'z yasalishi jarayoni faol, fors tilida esa nisbatan barqaror ekanini ko'rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari o'zbek va fors tillarida -chi, چى-(çi) ot yasovchi qo'shimchasi shaxs faoliyatini ifodalovchi oddiy so'z yasovchi vosita emas, balki inson tajribasi va ijtimoiy faoliyati bilan uzviy bog'langan semantik mexanizm ekanini ko'rsatadi. Ushbu affiks orqali hosil bo'lgan birliklar shaxsning amaliy faoliyati, ijtimoiy mavqei, qarashi va xulq-atvori bilan bog'liq ma'nolarni umumlashtirib, til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni namoyon etadi. -chi qo'shimchasining o'zbek tilidagi keng va harakatchan semantik imkoniyatlari mazmunning kontekst asosida kengayishini, fors tilidagi nisbatan barqaror qo'llanilishi esa shakl va ma'no munosabatining an'anaviy doirada saqlanishini ifodalaydi. Bu holat affiksatsiya jarayonining faqat grammatik hodisa emas, balki til egalarining bilish tajribasi va ijtimoiy ehtiyojlari bilan belgilanadigan jarayon ekanini ko'rsatadi.

Shu asosda -chi, چى-(çi) ot yasovchi qo'shimchasi o'zbek va fors tillarida bir xil shakliy birlik bo'lsa-da, ularning semantik tuzilmasi va funksional yuklari har bir tilning tafakkur modeli va nominativ strategiyasini aks ettiruvchi farqli tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2006.
2. Hojiyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014.
3. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Наука, 1975.
4. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Издательская фирма "Восточная литература" РАН, 2001.
5. Alimova, Xolida. Dariy tilida so'z yasalishi: monografiya. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2019.
6. Quronbekov A, Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi. – T.: TDSHI, 2019.
7. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2009.

8. G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov. Fonetika, morfologiya va sintaksis. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.

9. Сотова О. М. Основные структурно-семантические особенности терминообразования в современном персидском языке: дис. ... канд. филол. наук. – М., 2008.